

O'zbekiston va Yaponiya strategik sherikligida yangi davr



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Yaponiya Bosh vaziri Sindzo Abening taklifiga binoan rasmiy tashrif bilan ushbu mamlakat poytaxti Tokioda bo'lib turibdi.

Yaponiya mo'jizasiga duch kelmagan, uning aql bovar qilmas darajadagi yuksak texnologiyalaridan hayratlanmagan odamni topish qiyin. Chunki har kuni bu mamlakatda ishlab chiqarilgan, inson intellektual salohiyatining bemisli kashfiyotlari bo'lgan kundalik ro'zg'or buyumlaridan tortib yuqori texnologiyalar, sun'iy intellekt yutuqlaridan, boshqa ming-minglab texnikalardan foydalanamiz, ularsiz hayotimizni tasavvur etolmaymiz.

Odamlarda "bu Yaponiyani" yoki "Yaponiyada ishlab chiqarilgan" degan tushunchani paydo qilish uchun yapon xalqiga bor-yo'g'i yarim asr yetarli bo'ldi. Lekin shu qisqa vaqt ichida yaponlar boy tabiiy resurslarsiz, inson tafakkuri bilan ham mo'jiza yaratishga qodirligini isbotlab berdi.

Ha, yapon xalqi o'z mo'jizalari bilan qancha hayratlantirmasin bundan aslo g'ururlanmaydi, aksincha, yanada ko'proq izlanadi, tinim bilmaydi, kashfiyotlar qilishga intiladi. Shu bois Yaponiya ko'chalarida xotirjam sayr qilayotgan yoki dam olayotgan odamni uchratmaysiz, hamma o'z yumushiga, kech tushishi bilan uyiga shoshadi. Mubolag'asiz, vatanparvarlik, mehnatkashlik, tadbirkorlik bu tinim bilmas xalqning qon-qoniga singib ketgan. Shu bois Yaponiya ishlab chiqarish hajmi bo'yicha eng oldingi o'rinlardan birida turadi, texnologiyalar eksporti bo'yicha dunyoda yetakchilardan sanaladi.

O'zbek va yapon xalqlarining o'xshash jihatlari ko'p. Milliy va axloqiy qadriyatlar, birdamlik, mehnatsevarlik, mehr-oqibat kabi fazilatlar ikki xalq uchun birdek xosdir. Bu mamlakatlarimizning do'stligi va o'zaro hamkorlik munosabatlarida yaqqol aks etmoqda.

O'tgan yillarda O'zbekiston va Yaponiya ikki va ko'p tomonlama o'zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirishda salmoqli yutuqlarga erishdi. Mamlakatimiz Yaponiya bilan samimiy do'stlik aloqalarini, strategik sheriklik va hamkorlikni yuksak qadrlaydi. Yaponiya O'zbekistonni Markaziy Osiyo mintaqasidagi muhim hamkori sifatida e'tirof etadi.

Shu bois O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Kunchiqar

mamlakatga rasmiy tashrifini har ikki tomon o'zaro munosabatlar tarixida muhim voqea, siyosiy, savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy, ilmiy-texnologik sohalardagi hamkorlikni yanada rivojlantirishda muhim qadam deya baholamoqda.

Yaponiyaga tashrifning uchinchi kuni ushbu mamlakat parlamentining quyi palatasida uchrashuvdan boshlandi. Davlatimiz rahbari Vakillar palatasi raisi Tadamori Osima bilan O'zbekiston – Yaponiya parlamentlararo munosabatlarini yanada rivojlantirish masalalarini muhokama qildi.

Yaponiya parlamentining O'zbekiston bilan do'stlik ligasi faol ishlayotgani katta mamnuniyat bilan qayd etildi.

Kunchiqar mamlakatning parlamentarizm sohasidagi tajribasini o'rganish bo'yicha qo'shma tadbirlar o'tkazish va o'zaro almashinuvlarni kengaytirishga kelishib olindi.

Uchrashuv so'ngida O'zbekiston Prezidenti Yaponiya parlamenti quyi palatasi spikeriga yurtimizda ilk bor o'zbek tiliga tarjima qilingan va chop etilgan Yaponiya Konstitutsiyasining birinchi nusxasini sovg'a qildi.

Shavkat Mirziyoyev Vakillar palatasi majlislari o'tadigan asosiy zal bilan ham tanishdi.

Davlatimiz rahbari Yaponiya parlamentining Maslahatchilar palatasi prezidenti Akiko Santo bilan uchrashdi.

Parlamentlararo hamkorlikning bugungi holati, ayniqsa, joriy yilda qabul qilingan qo'shma memorandum doirasida ikki mamlakat qonun chiqaruvchi organlari o'rtasida faol muloqot olib borilayotgani yuksak baholandi.

O'zbekiston bilan Yaponiya o'rtasidagi do'stlik va strategik sheriklik munosabatlarini yanada mustahkamlash masalalari ko'rib chiqildi. Ta'lim, madaniyat, sport, gumanitar almashinuv sohaslarida keng imkoniyatlar mavjudligi ta'kidlandi.

Davlatimiz rahbari Yaponiya parlamenti Maslahatchilar palatasi sessiyalari o'tkaziladigan tarixiy zal bilan ham tanishdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Tokiodagi Akasaka qarorgohida Yaponiya xalqaro hamkorlik agentligi (JICA) prezidenti Sinichi Kitaokani qabul qildi.

Uchrashuv avvalida Shavkat Mirziyoyev O'zbekistondagi islohotlarni qo'llab-quvvatlash va ustuvor dasturlarni ilgari surishga qaratilgan ko'p yillik hamkorlik uchun JICA rahbariga minnatdorlik bildirdi.

Bugungi kunda sheriklikdagi loyihalar qiymati 4 milliard dollardan oshdi. Uzoq muddatli hamkorlik bo'yicha umumiy qiymati 3,5 milliard dollardan ziyod bo'lgan, jumladan, energetika, sanoat va qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish, ekologiya, sog'liqni saqlash va boshqa sohalardagi loyihalarni o'z ichiga olgan yangi dastur o'zaro kelishib olindi.

Kichik va o'rta biznes loyihalarini qo'llab-quvvatlash, shuningdek, ta'lim sohasidagi almashinuvlarni kengaytirishga alohida e'tibor qaratildi.

O'zbekiston va JICA hamkorligidagi har bir loyihaning o'z vaqtida va sifatli amalga oshirilishini ta'minlash maqsadida "Yo'l xaritasi" ishlab chiqishga kelishib olindi.

Tokio shahrida dunyoga mashhur yaponiyalik arxitektor Tadao Ando O'zbekiston davlat san'at muzeyini rivojlantirish konsepsiyasiga doir takliflarini taqdim etdi.

Ma'lumki, poytaxtimizdagi muzeyni kompleks rekonstruksiya va modernizatsiya qilish rejalashtirilgan. Ushbu loyiha doirasida O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzuridagi Madaniyat va san'atni rivojlantirish jamg'armasi xorijiy mutaxassislar bilan hamkorlik qilmoqda. Yaponiyalik arxitektor Tadao Ando shular jumlasidan.

Uchrashuvda me'mor tomonidan Venadagi "Albertina" muzeyi direktori Klaus Shryoder va "Alternativ Velt" kompaniyasi prezidenti Adrian Barsan bilan hamkorlikda tayyorlangan taqdimot namoyish etildi.

Davlatimiz rahbari ushbu loyihani muzey ishining zamonaviy talablari va me'morlikdagi ilg'or yechimlarni hisobga olgan holda tayyorlash yuzasidan o'z taklif va tavsiyalarini berdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Yaponiyaga rasmiy tashrifi asosiy tadbirlari 19-dekabr kuni Tokioda bo'lib o'tdi.

Kantey qarorgohida rasmiy kutib olish marosimi bo'ldi. Davlatimiz rahbarini Yaponiya Bosh vaziri Sindzo Abe kutib oldi. Ular davlat bayroqlari oldida qo'l berib ko'rishdi.

Davlat madhiyalari yangradi. Shavkat Mirziyoyev va Sindzo Abe oliy martabali mehmon sharafiga saf tortgan faxriy qorovul oldidan o'tdi. Ularga delegatsiyalar tanishtirildi.

Shundan so'ng ikki mamlakat delegatsiyalari ishtirokida muzokara o'tkazildi.

Yaponiya hukumati rahbari Prezidentimizni samimiy qutlar ekan, ushbu tashrif "Reyva" ("Go'zal uyg'unlik") davrining birinchi yilida o'tayotganini alohida ta'kidladi.

Tokio mamlakatimiz bilan do'stlik va strategik sheriklik munosabatlarini mustahkamlashga alohida ahamiyat qaratayotgani qayd etildi.

Sindzo Abe O'zbekistonda amalga oshirilayotgan keng miqyosli islohotlarni yuksak baholadi va ularni to'liq qo'llab-quvvatlashini bildirdi. Davlatimiz Markaziy Osiyoda mintaqaviy hamkorlikni jonlantirishga faol hissa qo'shayotgani ta'kidlandi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev, o'z navbatida, Yaponiya hukumati rahbariga samimiy qabul uchun minnatdorlik bildirib, yapon xalqini "Reyva" davri boshlangani bilan tabrikladi.

Mamlakatimiz yetakchisi ikki tomonlama ko'p qirrali sheriklikni sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarish borasidagi intilishi qat'iy ekanini ta'kidladi.

Yaponiya hukumatiga O'zbekistondagi islohotlar va iqtisodiy modernizatsiyani qo'llab-quvvatlayotgani, shuningdek, yuqori malakali kadrlar tayyorlashga ko'maklashayotgani uchun minnatdorlik bildirildi.

Uchrashuvda konstruktiv siyosiy muloqotni davom ettirish yo'nalishlari ko'rib chiqildi. Dolzarb xalqaro ahamiyatga molik masalalar bo'yicha tomonlarning yondashuvlari yaqinligi qayd etildi.

Parlamentlararo aloqalar, jumladan, Yaponiya parlamentidagi O'zbekiston bilan do'stlik ligasining faol ishtiroki doirasida jonlangani mamnuniyat bilan qayd etildi.

Asosiy e'tibor mamlakatimizda iqtisodiy islohotlarni qo'llab-quvvatlashga qaratildi.

Ikki mamlakat yetakchilari o'zaro savdo hajmini yanada oshirish, investitsiyaviy, texnologik, moliyaviy va moliyaviy-texnik hamkorlikni kengaytirishni taklif etdilar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Yaponiyaga tashrifi doirasida bo'lib o'tgan ishbilarmonlik tadbirlarining natijalari katta mamnuniyat bilan tilga olindi.

Energetika, qazib olish tarmog'i, mashinasozlik, kimyo sanoati, qishloq xo'jaligi, to'qimachilik, turizm va boshqa ustuvor yo'nalishlarda, avvalo, Yaponiya yetakchi kompaniya va banklarining to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalari va ilg'or texnologiyalarini jalb qilgan holda istiqbolli loyihalarni amalga oshirish ma'qullandi.

Delegatsiyalar rahbarlari Yaponiya xalqaro hamkorlik agentligi orqali moliyaviy va moliyaviy-texnik sheriklik kengayib borayotganini olqishladilar.

Bundan tashqari, hududlararo aloqalarni, tartibli mehnat migratsiyasi, ta'lim, sog'liqni

saqlash, madaniy almashinuv sohalarida hamkorlikni kengaytirish masalalari muhokama qilindi.

Asosiy yo'nalishlarda qo'shma loyihalarni muvofiqlashtirish va ilgari surishning institutsional mexanizmlari kelishib olindi.

Uchrashuv yakunida tomonlar muzokara natijalaridan mamnun ekanlarini bildirdilar, do'stlik va strategik sheriklik munosabatlarining yangi davrini boshlash borasida qat'iy ekanlarini ta'kidladilar.

Yaponiya Bosh vaziri Sindzo Abe O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning o'zi uchun qulay vaqtda mamlakatimizga tashrif bilan kelish taklifini minnatdorlik bilan qabul qildi.

Oliy darajadagi muzokaralar yakunida ikki tomonlama hujjatlarni imzolash marosimi bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Yaponiya Bosh vaziri Sindzo Abe O'zbekiston bilan Yaponiya o'rtasidagi strategik sheriklik munosabatlarini yanada chuqurlashtirish va kengaytirish to'g'risidagi Qo'shma bayonotni imzoladi.

Ikki mamlakat hukumatlari o'rtasida soliq va bojxona sohalaridagi hamkorlik, shuningdek, yirik investitsiyaviy va infratuzilmaviy loyihalarni amalga oshirish bo'yicha imzolangan bitimlar almashildi.

Bulardan tashqari, O'zbekiston delegatsiyasi tashrifi doirasida iqtisodiyot, sanoat, turizm, ilm-fan, innovatsiyalar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, mehnat migratsiyasi, ta'lim va sport sohalarida, hududlar o'rtasida hamkorlik bo'yicha o'ndan ziyod hujjat qabul qilindi.

Shundan so'ng ikki mamlakat yetakchilari ommaviy axborot vositalari vakillari uchun bayonot berdi.

Davlatimiz rahbari Yaponiya bilan ko'p qirrali va o'zaro manfaatli munosabatlarni rivojlantirish va yanada kengaytirish O'zbekiston tashqi siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri ekanini ta'kidladi.

– Bugun siyosiy, parlamentlararo aloqalar, savdo va investitsiya, innovatsiya, kichik va o'rta biznes, fan va ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat va boshqa sohalarda hamkorlik istiqbollari batafsil muhokama qildik hamda muhim kelishuvlarga erishdik, – dedi Shavkat Mirziyoyev. – Tashrif doirasida Yaponiyaning yetakchi kompaniya va tashkilotlari bilan yirik loyihalar bo'yicha bitimlar imzolandi. Bu loyihalar, avvalo,

Yaponiyaning ilm-fan va yuqori texnologiyalar sohasidagi ilg'or yutuqlarini O'zbekiston iqtisodiyotiga joriy etishga qaratilgani bilan ayniqsa e'tiborlidir.

Yaponiya Bosh vaziri, o'z navbatida, Prezident Mirziyoyev rahbarligida mamlakat iqtisodiyotini liberallashtirish bo'yicha olib borilayotgan siyosatni yuqori baholadi. Imzolangan salmoqli hujjatlar mamlakatlarimiz o'rtasida savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy, madaniy-gumanitar aloqalar kengayishiga xizmat qilishiga ishonch bildirdi.

– Biz janob Prezident bilan, Qo'shma bayonotga asoslanib, Yaponiya va O'zbekiston o'rtasidagi hamkorlikni hamma sohalarda rivojlantirish bo'yicha yelkadosh bo'lib ishlaymiz, – dedi Sindzo Abe.

Xalqaro ahamiyatga molik dolzarb masalalar bo'yicha tomonlarning yondashuvlari yaqinligi yana bir bor tasdiqlandi.

[O'z?](#)